



13.00.00
13.00.01
13.00.02
13.00.03
13.00.04
13.00.05

13.00.06
13.00.07
13.00.08
13.00.09
07.00.00
19.00.00

01.00.00
02.00.00
03.00.00
09.00.00
10.00.00
11.00.00

№5/2025

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga
ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,
14-may, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Qirg'izboyev Abdug'afvor Karimjonovich – Tarix fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Umarova H.O' – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)
Panjyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

EDITOR-IN-CHIEF:

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich – Doctor of Historical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woogyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko’ra, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo’yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan №C-5669245
reyestr raqami tartibi bo’yicha
ro’yxatdan o’tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

MUNDARIJA

Nutq o'qitirish mashg'ulotlarida maqol va rivoyatlardan foydalanish texnologiyasi	12
Azimova Nodira Xikmatovna	
Matematikada o'tkaziladigan sinfdan tashqari viktorina, matematik ertalik va matematik musobaqalarni tashkil etish.....	15
Azizova Dilnoz Yo'ldashevna	
Adabiy ta'limda fanlararo integratsiyani rivojlantirishda didaktik o'yinlarning o'rni	19
Hasanova Bahora Isa qizi	
Boshlang'ich sinf ona tili darsliklaridagi kognitiv-pragmatik mashqlar turlari va mazmuni.....	22
Jahonova Nargiza Yunus qizi	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanidan uyga vazifalarni tashkil etishda QUIZ testlardan foydalanish	28
Jamolova Nodirabegim Jobir qizi	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishning dolzarbligi	32
Mazgarova Durdona Shuxrat qizi, Mirzakamolova Komola Xojiakbar qizi	
Understanding and Using Articles in English: A Practical Approach.....	35
Mustafeyeva Nigina Shuhrat kizi	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari.....	40
Nosirova Dilfuza	
Ona tili va o'qish savodxonligi fanining boshlang'ich ta'limdagi o'rni va ahamiyati	45
Otamurodova Mahfirat Husan qizi	
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasidagi qaror va qonunlari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga zamonaviy yondashuv	49
Imamova Nilufar Zabiyyulla qizi, Po'latova Mahfuza To'liqin qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining kasbiy etikasi va madaniy salohiyatini shakllantirish omillari...52	
Qodirova Fotima Rashidovna	
Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda xorijiy tajribalarining qiyosiy tahlili55	
Shokirova Madinabonu Shomurod qizi	
Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda mental arifmetikaning o'rni.....59	
Sulaymonova Nigora Olimjon qizi	
Boshlang'ich ta'limda ta'lim samaradorligini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish mexanizmlari (Singapur ta'lim tizimi misolida).....63	
Taniqulova O'g'lioy Fahriddin qizi	
SWOT texnologiyasi asosida talabalarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish modeli.....66	
Abdusalomova Saidabonu Ziyovuddin qizi	
Механизмы формирования характера трудолюбия в младшем школьном возрасте	69
Зияев Амаль Толибович	
Современные методы обучения иностранному языку в начальных классах	72
Косимова Шахризода Бахромжон кизи, Рузметова Хилола Абдушариповна	
Ислам в духовных исканиях Льва Толстого: уважение великого писателя к религии и пророку	75
Мамасодикова Махзуна Жалол кизи	
Проблемы и особенности перевода с узбекского языка на русский: анализ ошибок и пути решения	78
Холмуродова Дилдора Хусниддиновна	
Развитие русского языка в современном мире	80
Чернова Татьяна Алексеевна, Темиров Руслан Расул угли, Хасанов Сайхунбек Килич угли	
Ona tili ta'limida muqobil javobli testlardan foydalanishning afzalliklari.....83	
Komilova Lola Nasilloevna	
Maxsus pedagogikani o'qitishda klinik, tarixiy, psixologik, didaktik materiallarni integrativ o'qitish metodlari	91
Djavlanova Nodira Xamza qizi	



Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining loyihalash kompetentligini shakllantirish	94
<i>Xidirova Dildora Zayniddinovna</i>	
Formation of Cultural Tolerance in Preschool Children Through Foreign Language Learning Using Digital Educational Resources	98
<i>Dadakhanova Mohlaroyim Muratvayevna</i>	
Ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash va qo'llab-quvvatlashning samarali usullarini o'rganish	106
<i>Ataullayev Fazliddin Fahriddin o'g'li</i>	
O'quv jarayonida sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanishning ta'limiy aspektlari tahlili	110
<i>Zubayda Barnoyeva</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlikni shakllantirishning nazariy va metodik manbalari	116
<i>Mirxalilova Nargiza Akbarovna, Usmanova Mashkura Mirzoroximovna, Xunarova Lobar Akbaraliyevna</i>	
Butun dunyoda nogiron bolalarga nisbatan munosabat: stereotiplar va ularni yengish	120
<i>Axmadova Shahloxon Voxid qizi</i>	
Ijtimoiy va pedagogik riabilitatsiyon deviant xulqi bo'lgan o'smirlar	124
<i>Abduvaliyeva Mashhura Abduvohid qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnat munosabatlarini tartibga solishda sog'lom ish muhitini yaratish	127
<i>Qosimova Shaxnoza Nuriddinovna</i>	
Maktab o'quvchilarida chet tili bo'yicha strategik kompetensiyani shakllantirish: psixologiyistik asoslar	131
<i>Akmalxonova Nodira</i>	
Chet tillarini o'zlashtirishning psixologiyistik asoslari: A. A. Leontyev qarashlarining tahlili	137
<i>B. O. Toshboyeva</i>	
O'quvchilarni tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish asosida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning xususiyatlari mazmuni	143
<i>Ro'zimatov Jamshid Alisher o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf "tarbiya" darslarida o'quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan mavzularning mazmun-mohiyati	148
<i>Xoliqulova Moxichehra Nodir qizi</i>	
Развитие деонтологической компетентности будущих учителей предмета "воспитания"	152
<i>Бахобов Анвар Абдусаттор угли</i>	
Obrazli tafakkur – boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stiruvchi vosita	155
<i>Turg'unova Xumora Xusniddin qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda janriy xususiyatlariga ko'ra ifodali o'qish ko'nikmasining yo'nalishlari	158
<i>Tirkasheva Xumora Nurali qizi</i>	
Sharof Boshbekovning "Temir xotin" dramasida dramatik diskursning semantik va sintaktik qurilishi	162
<i>Mavlanova Xafiza Gulmurodovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning teleko'rsatuvlar vositasida nutq madaniyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	166
<i>Abduvosiyeva Mahmuda Xamidullo qizi</i>	
"O'z-o'zini rivojlantirish", "amaliyot" hamda "pedagogik amaliyot" tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy, pedagogik talqini	169
<i>Adasheva Matluba</i>	
Kursantlarda muzokaraga kirishish ko'nikmalarini shakllantirishda nizoli vaziyatlar strategiyalarining psixologik o'rni	173
<i>Azamjonova Oyniso Qahramon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruvi jarayonida rahbar kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvlari	178
<i>Berdiyeva Dilafruz Shuxratovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim o'quv-tarbiya jarayonida mashq daftarining o'rni va ahamiyati	182
<i>Bo'ronova Maftuna Valijon qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishning nazariy asoslari	186
<i>Burxanov Bahodir Baxtiyorxodjaevich</i>	
Yoshlar orasida emotsional intellektni rivojlantirishning psixologik asoslari	191
<i>Darvishxojayev Xasan Abdulxakimovich</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darslarida virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari	195
<i>Djurayeva Nargis Narkulovna</i>	

Ingliz tilida talaffuzni o'rgatishda samarali zamonaviy kompyuter dasturlari	198
Ernazarova Shahnoza Ergash qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyaning ahamiyati va ma'naviyatga ta'siri	202
Fayziyeva Dilfuza Tohir qizi	
The Importance of Modern Technologies For Improving Speech Skills of Primary Students.....	206
I. A. Komolova	
Bo'lajak pedagoglarning ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishining o'ziga xos imkoniyatlari.....	209
Inadullayeva Sevara Qahramonovna	
O'quvchilarning jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi metodlar	212
Jumanova Shaxnoza Baxromjanovna	
Ulug'bek Hamdamning "Isyon va itoat" romanida obrazlar hayotiga konfliktning ta'siri.....	215
Karimova Mahliyoixon Mahkamjon qizi	
Sharq mutafakkirlari qarashlarida harbiy xizmatchilarda psixik o'zini o'zi boshqarish muammolarining metodologik tahlili	219
Kiyomxujaeva Madina Rustambek qizi	
Xorijiy tillarni o'qitishda milliy va xalqaro tajribalarni solishtirish	224
Jumaboyeva Malika, Eshpolatova Nozima, Ne'matova Shahzoda, Razzakova Nodira	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida markazlar faoliyatini rivojlantirishda tarbiyachining nutqiy madaniyati	227
Nazarova Zulayxo Turabovna, Oydinova Baxriniso Burxon qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni faoliyatlar orqali ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishda tarbiyachining vazifalari	231
Niyozova Maftuna Normaxmat qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarni raqamli ta'lim muhitida "Smart-Learning" texnologiyalarini samarali qo'llashga tayyorlash metodikasi (umumiy pedagogika misolida)	234
Nurullayeva Ugulxon Ergashboyevna	
O'qish savodxonligini rivojlantirishning zamonaviy didaktik yondashuvlari	237
Oripova Dilnozaxon Abduvosi qizi, Azimova Ziyoda Ergashevna	
Adabiy ta'limda o'quvchilarning refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	241
Qodirova Dilnoza Alisher qizi	
"Yorug'lik dispersiyasi va uni hosil bo'lishi" mavzusini eksperimental yo'l bilan tushuntirish metodikasi.....	245
Rashidova Vazira Baxodir qizi	
Oliy ta'lim muassasalari talabalarini akademik mobillik asosida o'qitish tizimini takomillashtirish muammolari va ularning yechimlari	248
Ruziyeva Shoxida Fatilloevna	
Literature is A Reflection of the Soul and Culture of Humanity.....	254
Sayidova Sayyora Yorikulovna	
Linguistic Devices in Detective Terminology of "The Purloined Letter" by Edgar Allan Poe.....	257
Shokirova Markhabo	
Maktab direktorlarining psixologik bilimlarini rivojlantirishning ahamiyati va yo'nalishlari.....	260
Talabayev Utkirjon Rosuljonovich	
Bo'lajak harbiy xizmatchilarda empatiya orqali kasbiy moslashuvchanlikni oshirishning ijtimoiy-psixologik asoslari	263
Toshmatov Rustamjon Muydinjon o'g'li	
Tanqidiy tafakkurni shakllantirishning pedagogik va psixologik nazariyasi bo'yicha xorijiy va mahalliy tadqiqotlar tahlili	266
Xudoyorova Gavhar Baxtiyor qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash mazmuni va amaliy ahamiyati	271
Yakubova Zilola Zikirovna	
Zulfiya she'riyatida vafodor ayol timsoli	274
Yusupova Muqaddam Mahmutjonovna	
Yangi davr – yangi dars: ta'limdagi zamonaviy metodlar.....	278
Jumoniyo'zov Nurbek Xudoyorovich	
Взаимное сотрудничество Республики Узбекистан и Республики Азербайджан в формировании современной системы международных отношений	280
Исломов Абдулазиз Латиф угли	

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Burxanov Bahodir Baxtiyorxodjaevich

O'zbekiston Respublikasi IIV MOMB MTO'M

katta mutaxassis-metodisti,

Nizomiy nomidagi TDPU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada ilk elektron kitoblarning kashf etilishi, ularning rivojlanish tarixi, raqamli kutubxonalar va axborot-kutubxona faoliyatining taraqqiy etishiga hamda kitobxonlik madaniyatining yuksalishiga ko'rsatgan ta'siri haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli kutubxona, elektron kitob, raqamli qurilma, kitob mutolaasi.

Abstract: The article provides information about the discovery of the first e-books, the history of their development, the advancement of digital libraries and information-library activities, and the impact they have had on the enhancement of reading culture.

Key words: digital library, e-book, digital device, reading culture.

Аннотация: В статье представлена информация об открытии первых электронных книг, истории их развития, о прогрессе цифровых библиотек и информационно-библиотечной деятельности, а также о влиянии электронных книг на повышение культуры чтения.

Ключевые слова: цифровая библиотека, электронная книга, цифровое устройство, культура чтения.

KIRISH

Hozirgi zamonda "raqamli texnologiyalar" har bir sohaga o'z ta'sirini ko'rsatib, aql bovar qilmaydigan o'zgarish va yangiliklarni inson hayotiga olib kirdi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiyot, sanoat, ijtimoiy himoya, ta'lim, tibbiyot, qishloq xo'jaligi, mudofaa, turizm va boshqa sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish urfga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev: "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda..." – deb ta'kidlagan edi ^[1].

O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston-2030" rivojlanish strategiyasi ishlab chiqildi. Strategiyaning maqsadi – raqamli texnologiyalar sohasida milliy ilmiy tadqiqot va rivojlantirish faoliyatlarini tizimli tarzda yo'lga qo'yish hamda ta'limni samarali isloh etishdan iborat. "Raqamli" atamasi birinchi bo'lib 1956-yilda Dortmund konferensiyasida Jon Makkarti va uning hamkasblari Marvin Li Minskiy, Nataniel Rochester, Klod Shennonlar tomonidan taklif etilgan. Jon Makkarti ushbu atamaning muallifi sifatida qabul qilingan ^[2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Har qanday "raqamli texnologiyalar"ga asoslangan dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqishda faqat axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yoki dasturlash bo'yicha mutaxassislarning ishtiroki yetarli bo'lmaydi. Dasturiy mahsulot qaysi sohaga tegishli bo'lsa, albatta, ushbu soha mutaxassislarini jalb etgan holda raqamli mahsulotlarni ishlab chiqish zarurati tug'iladi. U. Qodirov: "Raqamli faqat kompyuter texnologiyalari bilan bog'liq, degan xulosaga olib kelmasligi kerak. Aksincha, bu – raqamli tibbiyot, muhandislik va sanoat sohalaridan psixologiyagacha ko'plab fanlarga bevosita bog'liq bo'lgan hamda ularning barchasi ehtiyojlariga muvofiq ravishda tuzilgan soha ekanligidan dalolat beradi", – deb ta'kidlaydi ^[3]. Aynan kitob mutolaasi madaniyatini yuksaltirishda ham raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan keng foydalanish ta'lim-tarbiya samaradorligini yanada yaxshilashi mumkin, deb bilamiz.



Bugungi kunda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishda istiqbolli dasturlar va loyihalarni yaratish, ya'ni raqamli texnologiyalarga asoslangan kitobxonlik bo'yicha veb-saytlar, mobil ilovalar, sun'iy intellekt kutubxonalarini ishlab chiqish davr talabi bo'lib qolmoqda. Yosh avlodni kitoblar vositasida tarbiyalash, ularni kitob mutolaasiga jalb qilish masalalari har doim dolzarb muammo bo'lib kelgan. Mamlakatimizda raqamli texnologiyalar yordamida kitob mutolaasi madaniyatini yuksaltirish, kutubxonalar faoliyatini raqamlashtirish borasida M. A. Raxmatullaev, U. F. Karimov, A. Sh. Muhamadiev, S. S. Qosimov, B. I. Ganieva va boshqa bir qator olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Ko'plab xorijiy ilmiy adabiyotlarda elektron kitoblarning ilk namunalarini yaratish to'g'risidagi fikrlar amerikalik yozuvchi va impresario ^[4] faoliyati bilan shug'ullanuvchi Bob Braun tomonidan ilgari surilgan ^[5]. Uning 1930-yilda yozilgan "The Readers" nomli kitobida elektron kitoblarga oid ilk kashfiyot g'oyalari haqida ma'lumotlar berilgan. Bob Braun tomonidan ilgari surilgan elektron kitoblarga oid g'oyalar 40 yildan so'ng real voqealikka aylandi.

1971-yilda Maykl Stern Xart tomonidan amalga oshirilgan "Gutenberg" loyihasi ^[6] doirasida AQSHning Mustaqillik to'g'risidagi deklaratsiyasi elektron shaklga o'tkazildi. Ushbu kashfiyot dunyoda yaratilgan ilk elektron kitob sifatida e'tirof etiladi.

Biroq Maykl Stern Xart tomonidan kashf etilgan elektron kitoblarga qadar ham ushbu sohada bir qator izlanishlar olib borilgan. Xususan, 1945-yilda Vannevar Bush "Memex" nomli gipotetik qurilmani taqdim etadi. Ushbu qurilma yozuv stoli ustiga yasalgan bo'lib, inson tomonidan yaratilgan yozma manbalarni o'zida saqlash imkoniyatiga ega bo'lgan. Ma'lum sabablarga ko'ra "Memex" qurilmasi keng ommalashmadi. Biroq undagi sahifalarni varaqlash, izoh yozish va havolalarni kiritish kabi funksiyalar keyinchalik yillar o'tishi bilan dastlabki ishlab chiqilgan kompyuterlarda, o'qish uchun mo'ljallangan elektron qurilmalarda joriy etildi ^[7].

1949-yili Ispaniyada ispan tili o'qituvchisi Anxela Ruis Robles "Mexanik ensiklopediya" o'quv qurilmasini kashf etadi. Qurilmada ixtirochi ayol gipermatnning dastlabki turini qo'llagan va tasvirni yaqinlashtirib ko'rish uchun kattalashtirish imkoniyati ham mavjud bo'lgan. U kashf qilgan mexanik kitob kelgusida talabalarning qog'oz shakldagi o'quv kitoblari o'rnini egallashi mumkinligini bashorat qiladi. Biroq ushbu loyihani moliyalashtirishda o'z vaqtida sarmoyadorlar topilmaganligi sababli, mexanik kitobni ishlab chiqarish va rivojlantirish imkoni bo'lmagan ^[8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishda raqamli texnologiyalarning ta'sirini o'rganishga yo'naltirilgan kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotda asosiy metod sifatida nazariy-tahliliy usul tanlandi. Ilmiy manbalar, mavjud adabiyotlar, ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalar o'rganilib, raqamli kutubxonalar, elektron kitob platformalari va multimedia vositalarining kitobxonlik faoliyatiga ta'siri tahlil qilindi. Shuningdek, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil va empirik kuzatuvlar asosida raqamli texnologiyalarning samaradorlik darajasi baholandi. Tadqiqotda zamonaviy raqamli muhitda kitobxonlikni shakllantirish omillari, axborot texnologiyalaridan foydalanish shakllari va uslublari aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1985-yilda "Voyager" kompaniyasi ishlab chiqargan CD-ROM diskarga elektron kitoblarni yuklash bo'yicha tajribalar o'tkazish boshlandi. Natijada, 1993-yilda yozuvchi Maykl Krayton tomonidan yozilgan "Yura davri dunyosi" asarining 50 ta kitobdan iborat elektron shakli diskka yuklandi. Ushbu diskarga yozilgan kitoblar olib yurish mumkin bo'lgan ilk raqamli kitoblar sifatida tilga olinadi ^[9].

1990-yilda Djon Galuskza PC-book (Serendipity Systems) qurilmasida elektron kitoblarning betlarini tartib raqami bilan ko'rsata oladigan va xatcho'plarini belgilash mumkin bo'lgan dasturiy ta'minotni yaratdi ^[9].

1993-yilda "BiblioBytes" kompaniyasi birinchi bo'lib internet tarmog'ida elektron kitoblar savdosini amalga oshirish uchun yaratilgan veb-saytni ishga tushirdi. Shuningdek, ushbu kompaniya internet tarmog'ida savdo tizimini yo'lga qo'ygan ilk kompaniya sifatida ham e'tirof etiladi ^[10]. Aynan shu yili "Apple Newton" kompaniyasi dunyoda birinchi bo'lib elektron kitoblarni mutolaa qilish mumkin bo'lgan "Newton" (shaxsiy raqamli yordamchi) qurilmasini kashf etdi ^[8].

1994-yili rossiyalik dasturchi Maksim Yevgenevich Moshkov tomonidan "Lib.ru" internet elektron kutubxonasi ishlab chiqildi. 2006-yilga kelib ushbu kutubxonada 30 mingta raqamli kitob to'plandi ^[13]. 1998-yilda yuz bergan 4 ta muhim hodisa elektron kitoblarning dunyo bo'ylab yanada keng tarqalishiga ta'sir ko'rsatdi:

Elektron kitoblarni o'qish uchun "Rocket Ebook" va "Softbook" maxsus qurilmalari ishlab chiqildi.

- Tayyorlangan elektron kitoblarga ilk ISBN raqamlari berildi.
- AQSH kutubxonalarining veb-saytlari orqali keng omma ixtiyoriga elektron kitoblarni bepul yetkazib berish boshlandi.
- Larri Peyj va Sergey Brin tomonidan "Google" kompaniyasiga asos solindi ^[5].

Shu yili "NetLibrary" kompaniyasi kutubxonalarga elektron kitoblarni tayyorlash va yetkazib berish xizmatini taklif eta boshladi ^[12]. "NuroMedia" kompaniyasi elektron kitoblarni o'qish uchun ilk portativ "Rocket" qurilmasini ishlab chiqdi ^[13]. Shuningdek, elektron kitoblarni o'qish uchun ishlab chiqilgan qurilmalarga "SoftBook" dasturiy ilovasi yaratildi. Ushbu qurilma charm qoplama bilan qoplangan va telefon katalogi bo'yicha buyurtma berish dasturiy tizimiga ega bo'lgan ^[14]. Kitobxon o'zi bilan olib yurishi mumkin bo'lgan, hajmi kitobdek keladigan "Rocket" elektron kitob qurilmasi o'zida 10 tagacha romanlarni saqlay olgan va elektr quvvat manbayi 33 soatgacha yetgan ^[8].

2000-yilda raqamli texnologiyalar bozorida shaxsiy kompyuterlar uchun "Microsoft Reader" dasturiy ta'minoti sotuvga chiqarildi ^[8]. Ushbu dasturiy ta'minotda shaxsiy kompyuterlarda elektron kitoblarni o'qishda bir qancha funksiyalar: yorug'likni sozlash, lug'atdan foydalanish, masshtabni o'zgartirish hamda annotatsiya ma'lumotlarini kiritish imkoniyatlari mavjud edi. Bu esa kitobxonalarga bir qancha qulayliklar yaratdi. Shu yili Stiven King tomonidan yozilgan "Riding the Bullet" asarining elektron kitobi "Glassbook" elektron kutubxona veb-sayti orqali 24 soat ichida 400 ming nusxada sotildi ^[16]. "Gemstar" kompaniyasi elektron kitoblarni o'qish uchun o'zining yangi RCA va REB 1100, REB 1200 portativ qurilmalarini ishlab chiqardi ^[17]. 2002-yilda elektron kitoblarni o'qishda yanada keng qulayliklar yaratildi. Raqamli texnologiyalar bozorida "Palm Treo" ixcham cho'ntak smartfonlari chiqa boshladi. Ushbu smartfonlarda kontentni havo orqali yuklab olish va uni shaxsiy kompyuter bilan sinxronlashtirish imkoniyatlari kiritildi. Shu yili Microsoft kompaniyasi elektron kitoblarni mutolaa qilishda "MS Reader" dasturiy ta'minotini qo'llagan holda ekrandagi elektron kitoblarni portret rejimida o'qishni osonlashtira oladigan planshetlarni ishlab chiqara boshladi ^[8]. 2007-yilda Amazon kompaniyasi birinchi "Kindle eBook reader"ni ^[18], "Apple" kompaniyasi esa birinchi "iPod Touch/iPhone" qurilmalarini ishlab chiqardi ^[19]. "Kindle" qurilmasiga ma'lumotlarni simsiz yuklash, internetga kirish, eslatmalar kiritish uchun QWERTY-kaviaturasidan foydalanish kabi funksiyalar kiritilgan bo'lib, u shu kunga qadar dunyoda eng ko'p foydalaniladigan elektron kitob o'qish qurilmasi hisoblanadi. Uning takomillashtirilgan modellari – "Kindle Fire-2011"da to'liq rangli 7 dyuymli ekran, Wi-Fi, 8 GB xotira hamda tezlashtirilgan xotira kartasi; "Kindle Voyage-2014 Premium Ereader" modelida qo'shimcha kitob betlarini varaqlash funksiyasi; "Kindle Oasis-2016" modelida esa avvalgi modellaridagi barcha funksiyalar bilan birga hajmining yupqaligi va vaznining yengilligi bilan farqlanadigan raqamli o'quv qurilmalari ishlab chiqarildi ^[8].

2009-yilda "Barnes & Noble" va "Nook" kompaniyalari "Nook" elektron kitob o'qish qurilmasini taqdim etdi. Shu yili "Sony" kompaniyasi "Overdrive" raqamli tarmog'i orqali kutubxonalar bilan aloqa o'rnatdi. Natijada kitobxonlar yashab turgan hududlaridagi mahalliy kutubxonalardan elektron kitoblarni erkin va tez olish imkoniyatiga ega bo'ldilar ^[5]. 2010-yil elektron kitoblar yanada mashhur bo'lgan yil sifatida e'tirof etiladi. Bunga sabab "Apple" kompaniyasining "iBooks" bilan hamkorlikda "iPad" qurilmalarini ishga tushirgani va iBookstore internet do'koni orqali bir oydan kam muddatda 500 mingta elektron kitob sotishga erishganidir. Shu yili "Google" elektron kitoblar do'koni ochildi ^[5].

Elektron kitoblarning ixtiro etilishi, ularni mutolaa etish uchun ishlab chiqilgan qurilmalar va dasturiy ta'minotlarning takomillashuvi raqamli kutubxonalar shakllanishiga turtki bo'ldi. Turli soha vakillari tomonidan raqamli kutubxonalar turlicha tasavvur qilinadi. Bugungi kunda raqamli kutubxonalarning turli xil tavsiflari mavjud. Raqamli kutubxonalar federatsiyasi (Digital Library Federation – DLF) tomonidan bu tushunchaga to'liq ta'rif berilgan. Unda: "Raqamli kutubxonalar – resurslarni taqdim etuvchi, intellektual mulkka ega bo'lishni ta'minlovchi, raqamli kolleksiyalarni tashkil etish, yaratish, uzoq muddat saqlash va yetkazib berishni ta'minlovchi strukturadir", deb ta'kidlanadi ^[20].

Uilyam Arms o'zining raqamli kutubxonalarga bag'ishlangan "Raqamli kutubxona" monografiyasida quyidagicha ta'rif bergan: "Raqamli kutubxona – bu boshqariladigan axborot to'plami, unga tegishli xizmatlar hamda raqamli formatda saqlanadigan axborotlarni tarmoq orqali taqdim etuvchi tizimdir" ^[21]. Roy Tennant "raqamli kutubxona" tushunchasiga quyidagicha aniqlik kiritgan: "Raqamli kutubxona – bu raqamli mahsulotlar va xizmatlardan tarkib topgan, mazkur mahsulotlar saqlanadigan, qayta ishlanadigan va raqamli tarmoqlar orqali uzatiladigan kutubxonadir. Ya'ni, kompyuter tarmoqlari orqali raqamli xizmatlar raqamli ko'rinishda taqdim etiladi" ^[22].

Raqamli kutubxonalar g'oyasi yangilik bo'lmasa-da, 1990-yilgacha real bo'lmagan. Umuman, ilk raqamli kutubxonalar AQSHda barpo etilgan bo'lib, bunga "Aleksandriya" va "Initsiativa" raqamli kutubxonalari misol bo'la oladi. Tez orada raqamli kutubxonalar yaratish g'oyalari, madaniy qadriyatlarni saqlash va yetkazishning yangi, muhim turi sifatida Yevropaga tarqaldi ^[20].

Yevropada dastlabki raqamli kutubxonalarni yaratish bo'yicha bir qator loyihalar amalga oshirildi. Jumladan:

- e-Lib (The Electronic Libraries Programme) ^[23] – Elektron kutubxonalar dasturi bo'lib, oliy ta'limni rivojlantirishda katta rol o'ynagan. Asosiy maqsadi – g'ibrid kutubxonalar orqali raqamli kutubxona modelini yaratish, resurslar uchun kengaytirilgan qidiruv tizimini ishlab chiqish va raqamli resurslarni saqlash orqali loyiha amalga oshirilgan.



- Gallica (Fransiya) ^[24] – Fransiya Milliy kutubxonasining De l'Homme muzeyi, Pera Loti uyi bilan hamkorlikda yaratilgan internet-server bo'lib, onlayn qidiruvni sinovdan o'tkazish uchun ishlab chiqilgan.
- Global-Info: German Digital Libraries Program (Germaniya) ^[25] – Germaniyada 1996-2000-yillar oralig'idagi axborot infrastrukturasiga kiritilgan raqamli kutubxonalar yaratish konsepsiyasidir.
- BIBSYS raqamli kutubxona (Norvegiya) ^[26] – 1998-yildan 3 yil davom etgan loyiha bo'lib, Norvegiya milliy raqamli kutubxonalari barpo etishga bag'ishlangan. Maqsad – oliy ta'lim doirasida foydalanuvchilarni yangi va mavjud xizmatlarni integratsiyalash orqali raqamli axborot resurslari bilan ta'minlash.
- IRBIS – Rossiyaning integratsiyalashgan axborot-kutubxona tizimi bo'lib, an'anaviy kutubxona faoliyatini avtomatlashtirish texnologiyalari orqali o'rta va kichik kutubxonalarda adabiyotlarni tarqatish va ulardan foydalanish uchun mo'ljallangan ^[27].

O'zbekistonda esa 1990-yillarning oxiridan boshlab kutubxonalarda Rossiyada ishlab chiqilgan IRBIS tizimi AKAT (Avtomatlashtirilgan kutubxona axborot tizimi) sifatida tatbiq qilina boshlandi. Bu integrallashgan tizim mamlakatimizdagi ko'plab AKM (Avtomatlashtirilgan kutubxona markazi), ARM (Axborot resurs markazi) va boshqa kutubxonalarda foydalanilgan ^[28]. IRBIS tizimi O'zbekiston kutubxonachilik ishi rivojiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Mamlakatimiz kutubxonachilari mazkur tizim orqali kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish to'g'risidagi tushunchalarga ega bo'ldilar, xalqaro talablarga mos ravishda elektron bibliografik resurslar yaratish texnologiyalarini o'zlashtirdilar ^[29]. O'zbekistonda yaratilgan dastlabki "Namunaviy avtomatlashtirilgan kutubxona" (O'zbekiston Respublikasi FA Asosiy kutubxonasida) ham IRBIS tizimi asosida tashkil qilindi. Bundan tashqari, O'zbekistondagi bir qator yirik kutubxonalardagi elektron kutubxona bazasi ham mazkur tizim asosida shakllantirildi ^[29]. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasi 1994-yildan boshlab yangi texnologiyalar bilan jihozlandi: mahalliy kompyuter tarmog'i o'rnatildi; 1995-yildan yangi olingan adabiyotlarning elektron katalogi shakllana boshladi; avtomatlashtirilgan kutubxona dasturi "IRBIS" o'rnatildi (1998); Avtomatlashtirilgan kutubxona modeli va o'quv markazi ishga tushdi (2000) va boshqalar ^[30].

Dastlabki "Elektron katalog" 1999-yili Toshkent axborot texnologiyalari universitetida IRBIS tizimidan foydalanib yaratilgan bo'lsa (TASIS dasturi), ayni shu paytlarda Respublikamizdagi 10 ta kutubxona ham mazkur tizimdan foydalanib o'z elektron kataloglarini shakllantira boshladi. Elektron kataloglashtirish bilan bir paytda Milliy avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimini yaratishga ham urinishlar boshlandi ^[29]. Masalan, O'zbekiston Milliy universitetida, ATM "INFO-FAN", Toshkent axborot texnologiyalari universitetida, Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutida, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida, Toshkent viloyati "Turon" kutubxonasida va boshqa bir qator tashkilotlar tomonidan avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimini yaratishga kirishildi ^[29]. 2006-yilda Ziyonet tarmog'i Resurs markazi portalining birinchi talqini ishlab chiqildi va www.ziynet.uz manzili bo'yicha ishga tushirildi. Ushbu portal O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 28-sentabrda "O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-191-sonli qaroriga muvofiq tashkil topgan ^[31]. "Ziynet" jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etishdan asosiy maqsad – ta'lim oluvchilar uchun ta'lim olish tizimida keng ko'lamli axborot-kommunikatsiya xizmatlarini joriy etishdan iborat bo'ldi.

2007-yili Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining "Axborot, kutubxonachilik va nashriyot ishiga oid standartlar tizimini" (SIBID) O'zbekiston kutubxonachilik ishiga tatbiq qilish to'g'risidagi tashabbusini "Aloqa va axborotlashtirish agentligi" qo'llab-quvvatladi va Respublika axborot-kutubxona markazining sa'y-harakati bilan kutubxonachilik sohasiga oid standartlar tizimining birinchi varianti ishlab chiqildi. Demak, nazariy jihatdan kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beruvchi dasturiy vositalar yaratishga imkoniyat yaratildi ^[29]. 2017-yilda Toshkent axborot texnologiyalari universitetining bir guruh professor-o'qituvchilari va doktorantlari tomonidan axborot-kutubxona muassasalarining avtomatlashtirilgan tizimining yangi versiyasi – "ARMAT++" ishlab chiqildi. Tizim "Ta'limda elektron ta'limni joriy etish markazi"ning serveriga joylashtirilgan bo'lib, unga Respublika oliy o'quv yurtlarining ARMLaridan kirish imkoniyatlari yaratildi ^[32].

2021-yil 24-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-sonli qaroriga muvofiq, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida "Elektron kutubxona" (Unilibrary.uz) platformasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Ushbu "Elektron kutubxona" platformasi oliy ta'lim tizimidagi raqamlashtirish jarayonining ajralmas bo'lagi sifatida respublikamizdagi barcha talabalar, professor-o'qituvchilar, ishchi-xodimlar va keng aholi qatlamlariga zamonaviy hamda sifatli kutubxona xizmatidan beminnat foydalanish imkoniyatini berdi ^[33]. Shuningdek, 2023-yil 28-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar uchun ming kitob" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori asosida Yoshlar ishlari agentligi va Xalq banki hamkorligida "Mutolaa" – kitoblarning elektron, audio hamda video formatidagi tizimli platformasi yaratildi. Ushbu platforma o'zbek tilidagi 1000 dan ortiq o'zbek va xorijiy kitoblarni o'z ichiga olgan bo'lib, ularning yarmidan ko'pi audio versiyasiga ega. Matnlar professional dublyaj aktyorlari tomonidan o'qilgan. Bugungi kunda ushbu ilovadan foydalanuvchilar soni 500 mingdan oshgan.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yuqorida ko'rsatib o'tilgan elektron kitoblarning kashf etilishi va ularni mutolaa qilish uchun ishlab chiqilgan raqamli qurilmalarning takomillashuvi, raqamli kutubxonalar hamda axborot-kutubxona faoliyatining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Bu esa, aholi, ayniqsa yoshlar orasida mutolaaning rivojlanishini jadallashtirdi hamda kitobxonlik madaniyatining yuksalishiga keng imkoniyatlarni ochib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020- yil 24-yanvarda Олий Мажлисга йўллаган Мурожаатномаси. <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-2501-2020>
2. Қодиров У.Д., Қаршиев Ж.М. Таълим жараёнида сунъий интеллектдан фойдаланишнинг ўзига хос жиҳатлари // Современное образование (Ўзбекистан). 2021. №4 (101). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talim-zharayoni-da-suniy-intellekt-dan-foydalanishning-ziga-hos-zhi-atlari>
3. Баҳодир Карим. Янги фикр – янги йўл ёки маърифатнинг муаззам йўли ҳақида ўйлар. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/32-publitsistika?download=13487:buyuk-o-zbek-yo-li-2021>
4. Impresario – sahna san'atida konsertlar, spektakllar yoki operalarni moliyalashtiruvchi va tashkil qiluvchi shaxs. <https://en.wikipedia.org/wiki/Impresario>
5. The History of eBooks from 1930's "Readies" to Today's GPO eBook Services. <https://govbooktalk.gpo.gov/2014/03/10/the-history-of-ebooks-from-1930s-readies-to-todays-gpo-ebook-services/>
6. David Guion. A Brief History of the Internet and Digital Libraries. <https://allpurposeguru.com/2021/06/a-brief-history-of-the-internet-and-digital-libraries>
7. Leonardo Candela, Donatella Castelli, Pasquale Pagano. History, Evolution, and Impact of Digital Libraries. www.igi-global.com/chapter/history-evolution-impact-digital-libraries/47467
8. When Was eBook Invented (History Of eBook). <https://apexsolutionsltd.com/publishing-glossary/when-was-ebook-invented-history-of-ebook>
9. Devrim Akgunduz. Fen ve Matematik Eğitiminde Teknolojik Yaklaşımlar. Ankara, 2019. <https://www.researchgate.net/publication/337440122>
10. Bill Kasdorf. The Past 25 Years of E-books. <https://www.publishersweekly.com/pw/by-topic/digital/content-and-e-books/article/89005-the-past-25-years-of-e-books.html>
11. Александр Шнайдер. Краткая история электронных книг. <https://gercen.blogs.donlib.ru/2021/09/06/6102/>
12. Scott Doan. NetLibrary. https://www.researchgate.net/publication/233140424_Netlibrary
13. N.H. Senzai. eBook Evolution Continues. <http://nahasen.blogspot.com/2010/10/ebook-evolution-continues.html>
14. SoftBook. <https://en.wikipedia.org/wiki/SoftBook>
15. Olivia Smith. A Brief History of eBooks. <https://bookscouter.com/blog/a-brief-history-of-ebooks/>
16. Marie Lebert. The ebook is 40 (1971–2011). 67 page from 102. <https://www.gutenberg.org/files/36985/36985-pdf.pdf>
17. Richard Guthrie. Power Over Publishing: Organised Publishing's Strategic Suppression of the Trade E-book. <https://irep.ntu.ac.uk/id/eprint/40961/1/10183445.pdf>
18. Amazon Kindle Devices. https://en.wikipedia.org/wiki/Amazon_Kindle_devices
19. By Staff Reporter. The History of Apple: From iPod to iPhone. <https://www.techtimes.com/articles/246029/20191113/the-history-of-apple-from-ipod-to-iphone.htm>
20. Ганиева Б.И. Рақамли кутубхоналарнинг ривожланиши ва унинг олий таълим муассасалари рейтингини оширишга таъсири. Экономика и социум, №10(101)-1, 2022
21. William Arms. Digital Libraries. Chapter 1: Background. <http://www.cs.cornell.edu/wya/DigLib/new/Chapter1.html> (Accessed 19 March 2004)
22. Roy Tennant. Digital v. Electronic v. Virtual Libraries. <http://sunsite.berkeley.edu/mydefinitions.html> (Accessed 22 March 2004)
23. UKOLN. eLib: The Electronic Libraries Programme. <http://www.ukoln.ac.uk/services/elib> (Accessed 13 January 2005)
24. Gallica. <http://gallica.bnf.fr/>
25. DomainSpa, LLC. Global-info.org. <http://www.global-info.org/>
26. BDB: BIBSYS Digital Library. <http://www.bibsys.no/BDB/eng/>
27. Бродовский А.И. Интегрированная библиотечно-информационная система ИРБИС – современное средство для автоматизации малых и средних библиотек. <https://www.gpntb.ru/win/inter-events/crimea98/doc1/doc33>
28. Karimov U.F., Rahmatullaev M.A., Muhamadiyev A.Sh., Atajanov J. Korporativ axborot-resurs markazlarining avtomatlashtirilgan tizimi (KARMAT). Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2008. – 35 b.
29. Rahmatullaev M.A. va boshq. KARMAT-M: [Uslubiy qo'llanma]. T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009. – 64 b.
30. Nosirov O., Davlatov S. Kutubxonashunoslik ishi tarixi va nazariyasi: Metodik qo'llanma. Toshkent: Donishmand ziyosi, 2011. – 286 b.
31. <https://uz.wikipedia.org/wiki/ZiyoNet>
32. Karimov U.F., Rahmatullaev M.A., Muminov B., Karimov O. Axborot-kutubxona muassasalari uchun dasturiy ta'minot (ARMAT++). Toshkent, 2017
33. Mamarrasulov M., Aliev A., Mamajanov I. Oliy ta'limda axborot-kutubxona xizmatini raqamlashtirish: unilibrary.uz elektron kutubxona platformasi: metodik qo'llanma. Toshkent: "Yetakchi nashriyoti", 2024. – 32 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.